



Ziyodulla ESHMIRZAYEV,
Mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: ziyodullaeshmirzayev@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0002-4167-6237>

PhD, dotsent, I.Xo'jamurotovna taqrizi asosida

IRRIGATION CONSTRUCTION AND THE DEVELOPMENT OF DESERT MASSIFS IN THE SURKHAN-SHEROBOD OASIS (1950–1970)

Annotation

Drawing on archival records and periodical press materials, this article studies the large-scale irrigation construction undertaken in the Surkhan-Sherobod oasis of southern Uzbekistan between 1950 and 1970. Four interrelated projects — the reconstruction of the Zang canal, the South Surkhan reservoir, the Sherobod main machine canal and the Amu-Zang machine canal — are treated as successive stages of a single engineering model that moved from regulating local river flow to drawing directly on the Amu Darya. The author argues that the growth of irrigation in the oasis was subordinated to expanding the fine-fibre cotton base, that industrial construction methods were combined with mass mobilisation campaigns, and that figures published in the Soviet press diverge considerably from departmental archival data. The economic returns of the works are assessed together with their adverse land-reclamation consequences.

Key words: Irrigation, Surkhan-Sherobod oasis, Zang canal, South Surkhan reservoir, Sherobod machine canal, Amu-Zang canal, pumping station, desert development, cotton monoculture, land reclamation, archival source, Amu Darya basin.

ИРРИГАЦИОННОЕ СТРОИТЕЛЬСТВО И ОСВОЕНИЕ ПУСТЫННЫХ МАССИВОВ В СУРХАН-ШЕРАБАДСКОМ ОАЗИСЕ (1950–1970 гг.)

Аннотация

В статье на материалах архивных документов и периодической печати исследуется крупное ирригационное строительство, развернутое в Сурхан-Шерабадском оазисе юга Узбекистана в 1950–1970 годах. Четыре взаимосвязанных объекта — реконструкция канала Занг, Южно-Сурханское водохранилище, Шерабадский магистральный машинный канал и машинный канал Аму-Занг — рассматриваются как последовательные ступени единой инженерной модели, прошедшей путь от регулирования местного стока к прямому забору вод Амударьи. Обосновывается, что рост орошения в оазисе был подчинен задаче расширения базы тонковолокнистого хлопчатника, что индустриальные методы строительства сочетались с массовыми мобилизационными кампаниями, а цифры советской печати заметно расходятся с данными ведомственной документации. Экономическая отдача работ оценивается в совокупности с их негативными мелиоративными последствиями.

Ключевые слова: Ирригация, Сурхан-Шерабадский оазис, канал Занг, Южно-Сурханское водохранилище, Шерабадский машинный канал, канал Аму-Занг, насосная станция, освоение пустынь, хлопковая монокультура, мелиорация, архивный источник, бассейн Амударьи.

SURXON-SHEROBOD VOHASIDA IRRIGATSIYA QURILISHLARI VA CHO'L MASSIVLARINING O'ZLASHTIRILISHI (1950–1970-yillar)

Annotatsiya

Maqolada arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari asosida O'zbekiston janubidagi Surxon-Sherobod vohasida 1950–1970-yillarda amalga oshirilgan yirik irrigatsiya qurilishlari o'rganilgan. Zang kanali rekonstruksiya, Janubiy Surxon suv ombori, Sherobod magistral mashina kanali va Amu-Zang mashina kanali — o'zaro bog'liq bu to'rtta loyiha mahalliy oqimni tartibga solishdan Amudaryo suvidan bevosita foydalanishga qadar rivojlangan yagona muhandislik modelining ketma-ket bosqichlari sifatida talqin qilingan. Muallif vohada sug'orish tizimining o'sishi ingichka tolali paxta bazasini kengaytirish vazifasiga bo'yundirilganini, qurilishning industrial usullari ommaviy safarbarlik shakllari bilan uyg'unlashtirilganini hamda sovet matbuotida e'lon qilingan raqamlar idoraviy arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlardan sezilarli farq qilishini asoslaydi. Ishlarning iqtisodiy samarasi salbiy meliorativ oqibatlar bilan birgalikda baholangan.

Kalit so'zlar: Irrigatsiya, Surxon-Sherobod vohasi, Zang kanali, Janubiy Surxon suv ombori, Sherobod mashina kanali, Amu-Zang kanali, nasos stansiyasi, cho'l o'zlashtirish, paxta yakkahokimligi, melioratsiya, arxiv manbasi, Amudaryo havzasi.

Kirish. Sug'orma dehqonchilikka tayangan mamlakatlar uchun suv taqchilligining kuchayishi mavjud gidrotexnik infratuzilmani qaytadan baholashni taqozo etadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida kanal va gidrouzellarini yangilash, suvdan foydalanish hisobini yo'lga qo'yish hamda sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holatini tiklash vazifalari ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev suv imkoniyati chegaralangan hududda barqaror hosil yetishtirish qanchalik og'ir mehnat talab qilishiga e'tibor qaratar ekan, suvtejamkor agrotexnologiyalarga o'tishni kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida belgilaydi [1]. Ushbu yo'nalish «Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6200-son Farmonida normativ mustahkamini topgan [2].

Muammoning tarixiy o'lchovi shundan iboratki, bugun modernizatsiya qilinayotgan tarmoqning o'zagi — magistral kanallar, suv omborlari va nasos stansiyalari — XX asrning 50–70-yillarida shakllangan. Demak, hozirgi suv xo'jaligi qiyinchiliklarining ildizini tushunish uchun ushbu inshootlar qanday ehtiyojdan kelib chiqib va

qanday muhandislik mantig'i asosida barpo etilganini xolis o'rganish talab etiladi. Amudaryo havzasida bunday keng ko'lamli qurilishlar ilk bor daryoning yuqori oqimidagi Surxon-Sherobod vohasida yoyildi. Issiqlik resurslari bo'yicha respublikada yetakchi bo'lgan bu o'lda ingichka tolali paxta bazasi sifatida qaralgan, biroq Surxondaryo va Sherobod daryoning tabiiy oqimi rejalashtirilgan ekin maydonlarini barqaror suv bilan ta'minlashga yetmasdi. Resurs bilan reja o'rtasidagi ana shu nomutanosiblik 1950–1970-yillarda vohada to'rtta yirik loyihaning ketma-ket amalga oshirilishiga olib keldi.

Maqolaning maqsadi — mazkur qurilishlarni alohida obyektlar yig'indisi sifatida emas, balki bosqichma-bosqich murakkablashib borgan yagona muhandislik modeli sifatida tahlil qilish va uning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik natijalarini arxiv manbalari asosida baholashdir. Shundan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo'yildi: voha sug'orish tizimi evolyutsiyasining bosqichlarini ajratish; har bir bosqichning texnik va moliyaviy ko'rsatkichlarini aniqlashtirish; matbuot xabarlari bilan idoraviy hujjatlar o'rtasidagi tafovutni aniqlab, uning sabablarini izohlash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Voha irrigatsiyasi tarixiga oid ishlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.

Sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar orasida I.Xalikovning nomzodlik dissertatsiyasi eng batafsili hisoblanadi: unda 1959–1970-yillar doirasida Surxon-Sherobod vodiysida sug'orma dehqonchilikning o'sishi, Zang kanalining texnik holati va rekonstruksiya bosqichlari yoritilgan [3]. K.K.Abdullayevning ishi urushdan keyingi o'n yilliklarni qamrab olib, Janubiy Surxon suv ombori loyihasining boshlang'ich variantlari va smeta ko'rsatkichlari yuzasidan qimmatli faktik material beradi [4]. N.Ochilovning respublika miqyosidagi tadqiqoti ham shu qatarga kiradi [5]. Ushbu ishlarning umumiy cheklovi shundaki, ular o'z davri metodologiyasi va baho mezonlari doirasidan chiqmagan.

Ikkinchi guruh — so'nggi yillardagi geografik va iqtisodiy yo'nalishdagi nashrlar. Q.Mustayev va Sh.Ortiqova vohaning uchta irrigatsiya tizimi hamda suv omborlarining asosiy ko'rsatkichlarini umumlashtirgan [9]. A.Q.Choriev va G.M.Ochilova kanallarni tarmog'i, nasos stansiyalari quvvati va ulardan qishloq xo'jaligida foydalanish masalalarini ko'rib chiqqan [10]. Ular tizimning bugungi holatini ishonchli tavsiflaydi, biroq uning shakllanish yo'lini tarixiy jarayon sifatida ochib bermaydi.

Ko'rinib turibdiki, mavjud adabiyotda voha irrigatsiyasi yo'q. Ayrim obyektlar kesimida, yo respublika ko'lamidagi umumiy manzara ichida o'rganilgan. Zang tizimi, Janubiy Surxon suv ombori hamda 1-jadval

Surxon-Sherobod vohasi irrigatsiyasi rivojlanishining bosqichlari

Bosqich	Yillar	Asosiy obyekt va muhandislik yechimi	Sug'orish qamrovidagi natija
I	1948–1969	Zang magistral kanali rekonstruksiya — mahalliy oqimdan foydalanishni maksimal darajaga chiqarish	20 ming gektardan 65 ming gektarga o'sish; kanal uzunligini 90,5 km gacha yetkazish mo'ljallandi
II	1954–1962	Janubiy Surxon suv ombori — Surxondaryo oqimini mavsumiy tartibga solish	Kafolatlangan suv manbai; daryo oqimining 60 % dan ortig'ini ushlab qolish
III	1960–1970	Sherobod magistral mashina kanali va nasos stansiyasi — suvni sun'iy ravishda balandlikka ko'tarish	Sherobod dashtining qariyb 80 ming gektar yangi yeri
IV	1972	Amu-Zang mashina kanali — vohani bevosita Amudaryo bilan tutashtirish	Qurg'oqchil tumanlarning transchegaraviy manba hisobidan ta'minlanishi

Manba: arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyot asosida muallif tomonidan tuzildi [3; 4; 8; 11].

Birinchi bosqich — Zang tizimining rekonstruksiya. Voha sug'orish tarmog'ining tarixiy o'zagi qadimda barpo etilgan Zang magistral kanali edi. U Jarqo'rg'on tumanidagi Arpa-Mo'l qishlog'i yaqinida Surxondaryodan suv olgan; 29 kilometrlik yuqori qismi Surxon vohasi bo'ylab o'tib, quyi qismi Talimarjon va Quyi Zang tarmoqlariga bo'lingan holda SHerobod vohasi quyi yerlarining to'rtidan uch qismini suv bilan ta'minlagan. Qayta qurishdan oldingi holatda kanal uzunligi 50 kilometr, o'tkazish qobiliyati 50 m³/sek, sug'oriladigan maydoni 20 ming gektarni tashkil etardi [3; 71].

Tizimning zaif nuqtasi muhandislik inshootlarining yo'qligi bo'ldi: 1954-yilgacha suv qo'l mehnati bilan tayyorlanadigan shox to'g'onlar orqali olingan [4; 18]. Buning ustiga loyqa to'planishi kanalni saqlashni haddan tashqari qimmatga tushirardi — faqat 1949–1954-yillarda magistral kanaldan tozalab olingan loyqa hajmi yiliga 110 mingdan 300 ming kubometrgacha yetgan [3; 72].

Kanalni tubdan qayta qurishga 1959–1962-yillarda qabul qilingan hukumat qarorlari yo'l ochdi. 1963-yilda ajratilgan 16,4 million so'mning 14 millioni yer ishlarga sarflandi. Ikki yildan so'ng, 1965-yilda, «Sredazgiprovodxlopok» instituti loyihani melioratsiya talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqdi; yangilangan hujjatda kanalning uzunligi 90,5 kilometr etib belgilandi.

Biroq qurilish rejalashtirilganidek bormadi. O'zSSR Suv xo'jaligi vazirligi kollegiyasining 1968-yil 25-iyuldagi 5/2-son qarorida rekonstruksiya sur'ati keskin qoniqsiz deb baholangan: 2 091 ming so'mlik yillik rejadani atigi 178 ming so'm — 8,5 foiz — o'zlashtirilgan, yer ishlari 23,6 foizni tashkil etgan, beton ishlarga esa umuman kirishilmagan edi [11]. Ayni shu davrda matbuotda «reja 132 foizga bajarildi» mazmunidagi xabarlar chiqqanini hisobga olsak, sovet davri statistikasiga tanqidiy yondashuv zarurati o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

SHerobod va Amu-Zang mashina kanallari o'rtasidagi ichki muhandislik bog'liqlikni yagona evolyutsion zanjir sifatida ko'rsatuvchi maxsus ish esa hozircha yaratilmagan. Mazkur maqola ana shu bog'liqlikni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ish tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga tayanadi. Tahlil induktiv yo'nalishda qurilgan: avval alohida obyektlar bo'yicha birlamchi ma'lumotlar to'plangan, so'ngra ular umumlashtirilib, voha irrigatsiyasi rivojlanishining umumiy modeli shakllantirilgan. Tadqiqot strategiyasi sifatida arxiv izlanishi va hujjatli tahlil tanlandi.

Ishning manba bazasi uch qatlamdan tashkil topgan. Uning o'zagini O'zbekiston Milliy arxivi R.2483-jamg'armasidagi idoraviy hujjatlar — Suv xo'jaligi vazirligi kollegiyasi qarorlari, hukumat farmoyishlari va obyektlarni foydalanishga qabul qilish dalolatnomalari tashkil qiladi [11]. Ularga qo'shimcha qatlam sifatida 1961–1970-yillar davriy nashrlari jalb etildi: «Lenin bayrog'i», «Leninskoye znamya», «Pravda Vostoka» va «Yosh leninchi» sahifalaridagi xabarlar [13; 14]. Uchinchi qatlam — mavzuga oid ilmiy adabiyot hamda statistik to'plamlar [3; 4; 8; 15].

Tayanch usul sifatida manba tanqidi qo'llanildi. Sovet matbuotida keltirilgan mehnat unumdorligi raqamlari — normani 150, 250 yoki 350 foizga bajarish haqidagi xabarlar — birinchi navbatda targ'ibot vazifasini bajargani sababli mustaqil dalil sifatida qabul qilinmadi; ular idoraviy hujjatlar bilan yonma-yon qo'yib tekshirildi. Ayrim hollarda bunday tekshiruv keskin tafovutni ochib berdi va tafovutning o'zi tadqiqot natijalaridan biriga aylandi. Bundan tashqari qiyosiy-tarixiy, xronologik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. To'plangan materiallar voha irrigatsiyasi 1950–1970-yillarda o'rta izchil bosqichdan o'tganini ko'rsatadi. Har bir keyingi bosqich oldingisining resurs imkoniyati tugagan nuqtada boshlangan va texnik jihatdan undan murakkabroq bo'lgan (1-jadval).

Keyingi chora-tadbirlardan so'ng, 1969-yil 11-aprelda, Davlat komissiyasi obyektni qabul qildi: u viloyat suv xo'jaligi boshqarmasi balansiga 11 264,23 ming so'm qiymatda o'tkazildi, holbuki bajarilgan ishlarning smeta qiymati 11 728,35 ming so'mga teng edi [12]. Amaliy natijalar sezilarli bo'ldi — 1968-yilning o'zidayoq sug'oriladigan maydon 65 ming gektarga chiqdi, NMK-1 va NMK-2 nasos stansiyalari qurib bitkazildi. Tizimdan suv oladigan Jarqo'rg'on, Termiz va SHerobod tumanlarida paxta ekiladigan yer olti yil ichida 82 360 gektardan (1962) 132 ming gektargacha (1968) kengaydi [3; 154–156].

Ikkinchi bosqich — Janubiy Surxon suv ombori. Zang tizimining kengayishi navbatdagi muammoni ochiq qo'ydi: tartibga solinmagan tabiiy oqim bilan yangi o'zlashtirish dasturlarini ta'minlab bo'lmadi. Surxondaryo suvining salmoqli qismi vegetatsiyadan tashqari oylarda foydasiz oqib ketar, yoz o'rtasida esa taqchillik keskinlashardi. Chiqish yo'li sifatida mavsumiy tartibga soluvchi yirik suv ombori qurish g'oyasi ilgari surildi.

Loyihalashning o'zi jiddiy muhandislik izlanishini talab qildi: 1953–1954-yillarda muhandislar A.Rusanov va M.Benjaminovich rahbarligida ombor o'rni tanlashning oltita varianti ko'rib chiqildi [8; 16]. Tanlov Jomboy hududiga tushdi — bu yerda saqlanadigan har kubometr suvga to'g'ri keladigan tuproq ishlari hajmi nisbatan kam edi, o'ziyurar bosim ostiga viloyat janubidagi sug'orishga yaroqli maydonlarning 40 foizdan ortig'i tushardi, ombor esa daryo oqimining 60 foizdan ko'prog'ini ushlab qolish imkonini berardi.

Loyihaning kelib chiqishi bevosita paxta bazasini kengaytirish ehtiyoji bilan bog'liq. SSSR Ministrlar Sovetining 1954-yil 11-fevraldagi qarorida Surxondaryoda ingichka tolali paxta maydonlarini 70 ming gektarga yetkazish belgilangan va shu asosda ombor loyihasini tayyorlash «Sredazgiprovodxlopok» institutiga topshirilgan edi [8; 15–

16]. Dastlabki loyihadagi to'liq sig'im 740 million, o'lik hajm 100 million kubometr etib olindi, qurilish esa ikki bosqichga bo'lindi.

Qurilish rasman 1958-yil 19-martda — O'zSSR Vazirlar Sovetining tegishli qarori qabul qilingan kundan boshlandi [4; 53–54]. Dastlabki ikki yil tayyorgarlikka ketdi; ishchi jamoaning asosini viloyat kolxoz va sovxozlaridan yuborilgan odamlar tashkil etdi. 1961-yil fevralida obyekt VLKSM Markaziy Qo'mitasi IX Plenumining qarori bilan Butunittifoq zarbdor komsomol qurilishlari ro'yxatiga kiritildi [4; 57–59] — bu qo'shimcha mehnat resurslarini jalb etish uchun yo'l ochdi.

2-jadval

Surxondaryo vohasi suv omborlarining asosiy ko'rsatkichlari

Suv ombori	Ishga tushgan yili	Sug'orish maydoni, ga	Suv sig'imi, mln m ³	To'g'on uzunligi, km	To'g'on balandligi, m
Janubiy Surxon	1967	150 110	800	5,2	30
To'palang	1986	61 620	500	0,17	167
Uchqizil	1984	4 950	160	4,0	11,5
Oqtepa	1982	24 700	120	4,6	3,0
Degrez	1962	2 200	12,8	3,5	12,7

Manba: [9; 274] va [10; 154] ma'lumotlari asosida tuzildi.

Uchinchi bosqich — Sherobod magistral mashina kanali. Ombor barpo etilishi bilan Sherobod dashtini o'zlashtirishning muhandislik zamini yaratildi. Ammo dashtning asosiy massivini sug'orish uchun suvni sun'iy ravishda balandlikka ko'tarish kerak edi — bu vazifa vohada ilk bor yirik mashina kanali qurish masalasini kun tartibiga chiqardi.

Trassani tanlash bo'yicha qidiruv-tadqiqot ishlari to'rt yil — 1957 yildan 1961 yilgacha davom etdi. Sherobod magistral kanalining loyihasi 1960-yilda, bosh muhandis V.F.Rozenblat boshchiligidagi tayyorlandi. Muhandislar oldida ikki yo'l turardi: suvni Toshqo'rg'on balandligi ostidan 5,4 kilometrlik tunnel bilan o'tkazish yoxud uni nasoslar yordamida ko'tarish. Texnik kengash ikkinchi yechimni tanladi. Loyiha bo'yicha majmua qo'shuvchi kanal, 40 ming kilovatt quvvatli nasos stansiyasi va 27 kilometrlik mashina kanalini o'z ichiga olib, dashtning shimolida 76,5 ming gektar yangi yerga suv chiqarishi kerak edi [3; 90–93].

Nasoslarning ikki turi qiyoslanganidan keyin quvvati 8 ming kilovattlik elektr dvigatelli OII-185 rususidagi olti nasosli variant tanlandi. Stansiya agregatlarni ishga tushirish va to'xtatish jarayonini

3-jadval

Sherobod nasos stansiyasining ishga tushirilishi va mashina sug'orish maydoni dinamikasi

Yil	Qurilishdagi voqea	Mashina sug'orish maydoni
1966	Birinci agregat ishga tushirildi; stansiya sekundiga 18–20 m ³ suv berdi	12 533 gektar
1967	Ikkinchi agregat foydalanishga topshirildi	14 941 gektar
1968	Dalalarga 398,3 million m ³ suv berildi	24 360 gektar
1970	Yettinchi agregat ishga tushirilib, stansiya loyihaviy quvvatiga (100 m ³ /sek) chiqdi	qariyb 80 ming gektarga mo'ljallandi

Manba: davriy matbuot va dissertatsiya materiallari asosida tuzildi [3; 114], [14].

Qurilish 1970-yil 18-oktabrda yakunlandi. Uning paxtachilikdagi natijasini raqamlar ko'rsatib turibdi: 1966-yilda SHERobod tumani davlatga 27 316 tonna paxta topshirib, har gektardan 13,2 sentnerdan hosil olgan bo'lsa, 1970-yilda topshirilgan hosil 30 978 tonnaga, hosildorlik esa 22,6 sentnerga yetdi. Bu o'rinda bir nomutanosiblik ko'zga tashlanadi: hosildorlik besh yilda 71 foizga o'sgani holda yalpi hosil atigi 13 foizga ko'paygan. Sabab ma'muriy o'zgarishda — 1969-yilda tuman tarkibidan mustaqil paxtachilik tumani (hozirgi Muzrabot) ajralib chiqqan. Bu holat tuman kesimidagi statistik qatorlarni chegaralar o'zgarishini hisobga olmasdan qiyoslab bo'lmashligini eslatadi.

To'rtinchi bosqich — Amu-Zang mashina kanali. Voha irrigatsiyasining evolyutsiyasi mantiqan Amudaryo suviga bevosita chiqish bilan yakunlandi. Bu qadamni tabiiy sharoit tezlashtirdi: viloyat gidrometeorologiya xizmati 1972-yil uchun qurg'oqchilik bashorat qilib, ingichka to'liq paxta dalalarining xavf ostida ekanidan ogohlantirgandi. Shundan keyin qurg'oqchil tumanlarga Amudaryo suvini yetkazadigan mashina kanalini qurish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Vazifa oson emas edi: 56 kilometrlik trassani o'tish, nasos stansiyalarini, o'nlab ko'priklar va gidrotexnik inshootlarni barpo etish talab qilinardi. Muddatni siqish uchun kanalning 17 kilometrlik

Ishlarning eng zo'r pallasi 1962-yilning ilk kunlariga to'g'ri keldi. 5-yanvarga o'tar kechasi o'zanning yarmi to'sildi, oradan ikki kun o'tib — 7-yanvarda — Surxondaryo butunlay to'sib bo'lindi. To'g'on 403-belgiga ko'tarilgach, o'sha yilning apreldan omborda suv yig'ila boshladi [8; 20–21, 39]. Yakuniy hujjatlarda ombor hajmi quyidagicha qayd etildi: to'liq sig'im — 800, foydali hajm — 610, foydasiz hajm — 90, loyqa uchun ajratilgan qism — 100 million kubometr; to'g'on 5,2 kilometrga cho'zilib, balandligi 30 metrni, suv oynasi esa 65 km² ni tashkil etdi [8; 39–40]. Ko'rinadiki, amalda erishilgan sig'im boshlang'ich loyihadagi 740 million m³ dan ancha yuqori chiqqan.

to'liq avtomatlashtirishga hisoblab loyihalandi; kanal qurilishi 1962-yilda to'liq avj oldi [3; 91].

1966-yil qurilish taqdirida burilish yasadi. O'sha yilgi vegetatsiya davrida Janubiy Surxon omborida 450 million kubometr suv to'plangan, kuchli suv qaytishi esa Sherobod tumanidagi paxta dalalarini xavf ostida qoldirgan edi. Vaziyat suvni belgilangan muddatdan bir yil ilgari berishni taqozo etdi. Buning uchun uch oyga yetmaydigan muddatda qo'shuvchi kanal trassasi qidirib chiqildi, 2,5 million kubometr tuproq ko'chirildi, 25 ming kubometr beton va temir-beton yotqizildi [13]. Natijada 1966-yil 30-may kuni Sherobod nasos stansiyasining birinchi agregati ishga tushdi.

Ish sur'ati moddiy rag'bat hisobiga ham ushlab turildi. 1966-yil 31-avgustdan e'tiboran kuchga kirgan Nizomga ko'ra, viloyat suv xo'jaligi tashkilotlarida Surxon-Sherobod dashtidagi yangi yerlarni o'zlashtirishda band xodimlarning ish haqiga 30 foiz ustama qo'shib to'landi [3; 108]. Agregatlarning navbatma-navbat ishga tushirilishi mashina usulida sug'oriladigan maydonni yildan yilga kengaytirib bordi (3-jadval).

uchastkasida yer ishlari — qariyb 1,5 million kubometr — portlatish usulida bajarildi. Bu usul yuzga yaqin ekskavator va ellikta buldozerni bo'shatib, ularni boshqa uchastkalarga ko'chirish imkonini berdi. Keyinchalik suv isrofining oldini olish maqsadida kanalning 60 kilometrlik qismi beton bilan qoplandi [10; 155].

Bu qurilish tashkiliy jihatdan ham o'ziga xos maktab bo'ldi. Buyurtmachi, loyihachi va quruvchi tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik aniq tartibga solindi, moliyalashtirish uzilishsiz olib borildi, dispetcherlik xizmati esa texnika va ishchi kuchini eng zarur uchastkalarga tez to'plash imkonini berdi. Shu tariqa mahalliy oqim taqchilligi bundan buyon havzaning bosh daryosi hisobidan qoplanadigan bo'ldi. Bosqichni alohida hodisa deb qarash o'rinli emas: u Amudaryo havzasi bo'yicha tuzilgan yagona bosh sxemaning tarkibiy qismi edi — sxemada 30 ga yaqin gidrouzel barpo etish, 5–7 million gektar yerni sug'orish va havzada umumiy hajmi 80 milliard kubometrgacha boradigan omborlar tizimini yaratish rejalashtirilgandi [15; 53].

Ayni paytda tahlil qurilishlarning teskari tomonini ham ko'rsatdi. Tartibga solingan suv resurslaridan paxtachilikda jadal foydalanish doimiy amaliyotga aylangani sari sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yomonlashib bordi va ko'plab massivlarda sho'rlanish darajasi muttasil ko'tarildi [7]. Arxiv hujjatlarida kadrlar qo'nimsizligi

hamda qurilish sur'ati bilan ekspluatatsiya sifati o'rtasidagi uzilish ham qayd etilgan [11].

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchi, voha tajribasi Amudaryo havzasidagi irrigatsiya qurilishlarining bosqichli modelini to'liq shaklda namoyon etdi. Zang tizimi qayta qurilgach sug'orish qamrovi 20 ming gektardan 65 ming gektargacha kengaydi; Janubiy Surxon suv ombori 800 million kubometrlik tartibga solingan zaxira yaratdi; SHerobod nasos stansiyasi sekundiga 100 kubometr quvvat bilan qariyb 80 ming gektar dasht massivini suvga ulash imkonini berdi; nihoyat, Amu-Zang kanali vohani to'g'ridan to'g'ri Amudaryoga bog'ladi.

Ikkinchi, qurilishlarni tashkil etish uslubi o'ziga xos edi: industrial vositalar — yirik trestlar, ixtisoslashgan qurilish-montaj boshqarmalari, yangi texnika va ishlarning deyarli to'liq mexanizatsiyasi — ommaviy safarbarlik shakllari bilan birga qo'llanildi. Bu tajriba keyinchalik havzaning boshqa mintaqalarida, avvalo Qarshi cho'lida yanada yirikroq ko'lamdagi qurilishlarni yo'lga qo'yishga asos bo'ldi.

Uchinchi, qurilishlar oldiga qo'yilgan bosh vazifa paxta xomashyosi bazasini kengaytirish bo'lgani bois erishilgan muhandislik yutuqlari oxir-oqibat paxta yakkahokimligini mustahkamladi. Bu esa

suvdan ekstensiv foydalanish amaliyotini kuchaytirdi, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini og'irlashtirdi va Orol muammosining chuqurlashuviga o'z hissasini qo'shdi.

To'rtinchidan, sovet matbuoti e'lon qilgan ko'rsatkichlar bilan idoraviy hujjatlardagi raqamlar bir-biriga mos kelmaydi. Buning yorqin misoli — 1968-yilgi kollegiya qarorida reja atigi 8,5 foizga bajarilgani qayd etilgan bir paytda gazeta sahifalarida uning ortig'i bilan bajarilishi haqida xabar berilgani. Shu sababli mazkur davr suv xo'jaligi tarixini o'rganishda matbuot ma'lumotlarini arxiv hujjatlari bilan solishtirib borish uslubiy talab hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bir necha taklif bildirish mumkin. Avvalo, sovet davrida barpo etilgan irrigatsiya obyektlarining texnik hujjatlari va ekspluatatsiya ko'rsatkichlarini raqamli shaklga o'tkazib, tadqiqotchilar uchun ochiq baza yaratish maqsadga muvofiq. Ikkinchi, tarixiy izlanishlarda idoraviy arxiv hujjatlarini ustuvor manba sifatida qo'llash tamoyilini mustahkamlash lozim. Uchinchi, mashina irrigatsiyasiga asoslangan tizimlarning energiya sarfi va meliorativ oqibatlarini tarixiy dinamikada o'rganib, bugungi modernizatsiya loyihalari uchun amaliy tavsiyalar tayyorlash zarur. Bundan tashqari, vohaga ko'chirib keltirilgan aholining ijtimoiy moslashuvi tarixi mustaqil tadqiqot mavzusi bo'lishga arziydi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. — Toshkent: O'qituvchi, 2021. — 184 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6200-son Farmoni. 07.04.2021 // <https://lex.uz/docs/-5360449>
3. Халиков И. История развития ирригации и орошаемого земледелия в Сурхан-Шерабадской долине (1959–1970 гг.): Дисс. ... канд. ист. наук. — Ташкент, 1972. — 186 с.
4. Абдуллаев К.К. Развитие ирригационного строительства и орошаемого земледелия в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях Узбекистана (1946–1965 гг.). — Карши, 1966. — 124 с.
5. Очилов Н. Ўзбекистонда ирригация-мелиорация ишлари (1946–1964). — Тошкент: Фан, 1991. — 104 б.
6. Насритдинов Қ.М. Ўзбекистонда ирригация-мелиорация қурилишининг ривожланиши ва унинг ижтимоий-иқтисодий оқибатлари (1981–1990 йиллар): Тарих фан. номз. дисс. — Андижон, 1994. — 147 б.
7. Комилов О. Ўзбекистонда ирригация тизими ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951–1990 йй.): Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. автореферати. — Тошкент, 2017. — 66 б.
8. Bo'riyev S. Surxonning suv to'g'oni. — Toshkent: Turon-Iqbol, 2019. — 148 b.
9. Mustayev Q., Ortiqova Sh. Surxondaryo viloyati irrigatsiya tizimlari va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati // Science and Innovation. — 2022. — №1(3). — B. 272–277.
10. Choriev A.Q., Ochilova G.M. Surxondaryo viloyati hududidagi irrigatsiya tizimlari va ulardan qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish // Ekonomika i sotsium. — 2026. — №4(143)-2. — B. 152–155.
11. O'zbekiston Milliy arxivi (bundan keyin — O'zMA), R.2483-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 23–24-varaqlar.
12. O'zMA, R.2483-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2870-yig'ma jild, 180-varaq.
13. «Ёш ленинчи», 1966 йил 18 июнь.
14. «Ленинское знамя», 1967, 5 июль; «Ленин байроғи», 1967, 1 август.
15. Қориев М. Ўзбекистонда сув омборлари. — Т.: Ўзбекистон, 1969. — 96 б.